

Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O‘zga tilli
guruhlarda o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

CHO‘LPONNING “KECHA VA KUNDUZ” ASARIDAGI GRADUONIMLAR

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada tilshunoslikning bir qismi bo‘lgan graduonimlarning badiiy adabiyotdagi na‘munalari bilan tanishib chiqamiz.

KALIT SO‘ZLAR: Graduonim, sinonim, leksikologiya, tilshunoslik, darajalanish;

Tilshunoslikda badiiy asarni lingvistik tahlil qilish asta sekinlik bilan rivojlanib boryapti. Badiiy asarni tashkil etadigan so‘zlar uslubiy bo‘yoqdorligi yuqoriligi bilan baholanadi. Bunday so‘zlarning ko‘pchiligini graduonimlar tashkil qiladi. Graduonimlar matn mazmunini badiiy va estetik shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ularning darajalanish xususiyati matnda o‘zining jozibasini yaqqol namoyon qila oladi. Graduonimiya-leksemalarning ma‘no guruhlari a‘zolarida u yoki bu belgining darajalanishi. Bunday darajalanish oppozitsiyaning (zidlanishning) bir turi deb qaraladi va shu qatordagi bosh so‘zga nisbatan belgilanadi. Masalan: «yosh» belgisiga ko‘ra ayol, “Belgi”dagi darajalanish asosida: chiroyli-suluv-ko‘rkam-zebo; “siljish sur‘ati” belgisiga ko‘ra: yurmoq-chopmoq-yugurmoq-yelmoq kabi.¹

Graduonimiyaning mohiyati bir necha so‘zning, ma‘lum bir belgining oz- ko‘pligiga qarab lug‘aviy-ma‘noviy qatorda tuzilishida hosil bo‘ladi. Graduonimiya miqdorning oz yoki ko‘pligiga qarab o‘sib boradi. Darajalanish esa barcha so‘z turkumlari doirasida qo‘llanadi. Endi esa asardagi graduonimlar qatnashgan gaplarni ko‘rib chiqamiz.

Endi o‘n beshga qadam qo‘ygan bu yosh qizning go‘dak ko‘nglini uncha cho‘chitmas edi. [1-6] Otasi bomdoddan kirmagan, onasi sigir sog‘ish bilan ovvora, o‘zi kichkina sahnni supurib turgan vaqtida tashqari eshikning besaranjon ochilishi Zebining ko‘nglini seskantirib yubordi. [1-6] O‘rangan qiz ichkari eshikdan hatlar-hatlkamas paranjini irg‘itdiva o‘zining bolalik ruhi bilan yugurganicha borib Zebini quchoqladi. [1-6] Erta saharlab chopganim bekorga emas. [1-7] Men ham sezganman. Yuragim bir qur seskanib oldi burchaklaridan chiqib kelgan sevinch to‘lqinlarni aks ettiradi. Qish ichi yuraklarning g‘ash bo‘lgandir. Bilmadim avrod cho‘zilibroq ketdimikin. [1-9] O‘rtog‘imning bu samimiyatini Salti ham ko‘z bilan ko‘ribgina emas, ko‘ngil bilan sezib anglagan edi. [1-9] Qo‘ying o‘zim supuraman - deb yana supurgiga yopishdi. Salti bermadi, bu olmoq istadi; Salti qochdi bu quvladi. [1-10] O‘z uyining qabristonlar qadar jimjit, xonaqohlar qadar unsiz, o‘z ko‘ngli qadar tund va xo‘mraygan bo‘lishini istagan Razzoq so‘fi xuddi shu ola- to‘polon ustiga kirib keldi! [1-10] Yorug‘ dunyoga keldingiz shukur qiling! Sevining! Mundoq bir kuling! Kulimsirang! Iljaying! [1-11] Bunday telbalarcha ko‘pirib-tovushlarni to‘xtatmoq uchun ham, albatta, telbalarcha hayqirishlar, chaqmoq qadar quvvatli zarbalar lozim bo‘ladi. Qurvonbibi so‘zga qancha epchil bo‘lsa, Razzoq so‘fi shu qadar kamgap indamas, damini ichiga solgan, ziqna odam edi. [1-11] Uyida vaqtida Razzoq so‘fi yo ariq bo‘yidagi ko‘katlarni yulib yo eshik darvozalarni mahkamlab, yo hovlida o‘tin qirqib, yo bo‘lmasa - ikki qo‘li orqasida, dam ichakariga kirib dam tashqariga chiqib, lablarini ari chaqqan odamday og‘iz ochmasdan, indamasdan, yura beradi. [1-13] Bu safar Qurbonbibi yalinib - yolvarib zo‘rg‘a tinchitdi. [1-14] So‘fi shu “bilmaysiz” degan narsaga tutoqib ketdi; So‘fi xo‘rsinganidan ovozi qaltirab, dedi. [1-15] Yana damini chiqarmasdan, ichkariga tomon bir- ikki qadam bosdi keyin

¹ Jamolxonov H Hozirgi o‘zbek adabiy tili -Toshkent: Talqin, -2005

yana orqasiga qayrilib dedi; [1-16] So‘fining o‘g‘ir zarbi bilan o‘zlariga kelgach, oldilarida zo‘r bir tog‘ turganinin ko‘rib, ixtiyorsiz cho‘chib ketdilar. [1-19] Salti indamadi. Bir ozdan so‘ng o‘zi yana ilova qildi; [1-20] Ikkalasi yana ko‘zlarini miltillatib chol bilan kampirga tikildilar. [1-20] Boyadan beri eriga qarab jim o‘tirgan kampirning endi astagina kulimsirashi bularga jon kirgizdi. [1-21] Bu safar odamga o‘xshash gapirib, Qurvonbibini quvontirgan Razzoq so‘fi shu so‘zlardan so‘ng yana o‘z jimligiga qaytdi. Endi qushlarga qanotlarini rostlab turib “pir” eta uchmoqdan, keng ko‘klarga, fazolarga parvoz qilmoqdan boshqa narsa qolmadi. Bular taraqturaq eshik ochib, shoshilib ko‘chaga chiqqan vaqtlarida, paxta zavodining ingichka tovushli jing‘irog‘i soat o‘n ikki bo‘lganini bildirib qichqirdi. [1-22] Kulimsirab turib, qizlarga bir oz qaragach: Yana indamasdan o‘tirgan Zebiga endi bu safar Salti yalindi [1-24] Odamlar ichida, ko‘pchilik orasida qistasam, mendan xafa bo‘ling. [1-25] Dalalarning keng quchog‘idan uchishib kelgan mayin shabadalar qiz og‘zidan chiqqan unlarni o‘z qanotlariga mindirib, allaqayerlarga, olislarga olib kertardi. [1-26] Razzoq so‘fining sovuq yuzlari uning ko‘zlaridan yiroqlashganlar; nasihat yo‘li bilan minglarcha marta aytilagan va ta‘kidlangan so‘zlar unutilgan. [1-26] Arava yakka qanotli kichkinagina bir eshik oldida to‘xtab, aravakash bola qamchi sopi bilan eshikni qoqqanda va ichkaridan bir kampirning ingichka va jonsiz ovozi “Kim u?” deb so‘raganda, odamlar bir uyquni urgan edilar. Yosh narsalarga qarilarni aralashtirib nima bor? [1-26] Siqilib o‘lmaydimi odam? [1-28] Ikki-uch oydan beri bularnikida yashaydigan qarindoshlardan Sarvibibi degan kampir bu qizlarga ko‘z-quloq qilib berilgan edi. [1-28] Bu vaqtda oy anchagina yuqori ko‘tarilib qolgan edi, aravakash yumshoq kulimsiradi. [1-29] Ko‘kdagi oyga qarab, yerdagi oyni o‘ylar va boyagiday shirin-shirin kulimsirardi. [1-30] Tor ko‘chaning tugalishidagi soy hamma uxlab jim bo‘lganida, haybatli ovozini boricha qo‘yib yuborib, och yo‘lbarsday “guv-guv” bo‘kirardi. [1-30] Ba‘zan shu xil kuchli talablar yo kelinda, yo qizda ko‘rilib salgina yuzaga chiqa boshlasa, ko‘pni ko‘rgan ziyrak kampir darrov payqadi va oldini oladi. [1-31] O‘z qo‘lida bunday qurol yo‘qligini o‘ylab noumidlikka tushar, bo‘g‘ilardi. [1-33] Yuragi yomon g‘ash bo‘lib ketganidan keyin chiday olmasdan, kampirga aytib ko‘rdi. Bu kecha, hatto, shahar qizlariga poyloqchi bo‘lib kelgan uyquchi kampirga ham jon kirdi. [1-34] Xolmat havas bilan qiziqib qarasma, uning ko‘ngli tamom betaraf edi, faqat aravakash yigit yigit shuncha to‘polon yalla orasida Zebining ovozidan boshqa ovozlarni nechikdir farq etolmasdi. [1-36] Qorong‘ida turgan aravakash yigit yorug‘ tomondan kelayotgan qizni tanidi birdaniga - o‘zi kelayotir!- deb qichqirdi. [1-39] Yigit esa Xolmatning bor-yo‘g‘ini farq etolmaydigan holdaydi. [1-39] Bu qichqirishlar har qanday og‘ir uyqudan uyg‘otishga yarardilar, Zebi ham yarim mastlik holatidan seskanib uyg‘ondi va apil- tapil javob berdi: Enaxonni ko‘ndira olmadilar. [1-41] Shundan keyin mingboshining kichik xotini Sultonxon katta kundoshining qizi bilan gapni bir joyga qo‘yib, o‘rnidan turdi va Enaxonga tomon yuzlanib. [1-42] Bu so‘zlar yarim pichirlash bilan va ham ko‘zlar ikki tomonga alanglab turib aytilganidan kelinchakning ko‘ngli duv etib ketdi. [1-43] Kelinchak Umrinisabibining ko‘zlariga bir oz tikilb turgach. Uning uydan chiqib, o‘z hovlisiga tomon ketayotganini kelinchak eshik oldida kuzatib turdi. [1-46] Zebini bir ish qilib mingboshiga olib berish ustida o‘zining burungi dushmani, yani katta kundoshi Xadichaxon bilan ittifoq boshlashdan ham tortinmasdi. [1-47] Undan keyin kundoshlik alami, sizdan ikkin pog‘ona, mendan bir pog‘ona yiroqlashdi. Shunday bo‘lgandan keyin bizning ishimiz yana ham yengillashdi. Kechasi charchab kelib, uxlab qolibman. [1-52] Men sizdan so‘roqsiz chaqirishga botina olmadim. Qiz bechora, bu kulishlarning nimaligini angalayolmasdan, hayron bo‘lib, dam onasiga dam kichik buvisiga qarardi. Enaxon uni ayvonga taklif qilib, bir piyola-yarim piyola choy ichishga va mehmondorchilikka kelgan qatlamdan nasiba olishga chaqirsa ham ko‘nmadi. [1-52] Enaxonning bu so‘zlari labining uchidan chiqqan, buni Umrinisabibi ham payqagan edi. Mingboshining oti to‘xtar-to‘xtamas, tashqaridagi mirshablar yugirishib borib, darvozani ochdilar, katta darvozaning bir qanotidan chiqqan ingichka qiytillash ovozi muazzinlarning xunuk va qo‘pol tovushlariga qovushdi Hakimjon yugurib ichkari tomonga ketgach mingboshi Miryoqubga yuzlandi: [1-53] Mingboshi bu birgina, lekin kutilmagan so‘zga bir oz hayron qoldi. [1-53] Shuning uchun siz chaqirtirsangiz, Xolmat ham xursand bo‘ladi, mehmonlari ham

O‘lmasjon ot ustida orqasiga qayrilib qanday hodisa bo‘lganini anglayolmasdan qizlarga tikilgan edi.

Leksemalarning ma’no munosabatlarida darajalanish hodisasining o‘rganilishi ko‘p jihatdan ahamiyatlidir: lug‘at boyligining tizim sifatidagi tavsifini berishda, sinonimlar va antonimlar lug‘atini tuzishda, lug‘aviy birliklarning uslubiy vosita (stilistik figura) sifatidagi qiymatini belgilashda graduonimik tadqiqotlar natijasidan foydalanish mumkin.²

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hakimova H Semasiologiya -Toshkent: 2008.
2. Jamolxonov H Hozirgi o‘zbek adabiy tili -Toshkent-2005.
3. Sharif Bobojonov Ikrom Ismoilov O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati – Toshkent:Yangi asr avlodi-2007.
4. Cho‘lpon Kecha va kunduz Toshkent -2016

² Jamolxonov H Hozirgi o‘zbek adabiy tili -Toshkent-2005.